

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ AUDITINI O‘TKAZISH TARTIBI

Axmedjanov Nadirdjan Utkurdjanovich
Davlat soliq qo‘mitasi xodimi

Annotatsiya: maqolada Vazirlar Mahkamasning 2021 yil 1 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishida soliq auditining nazariy masalalari yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq Kodeksiga kiritilgan soliq auditi normasining mohiyati ochib berilgan. Soliq auditini xorijiy mamlakatlarda tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha tajribasi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, soliq tekshiruvlari, audit, soliq auditi, auditning xalqaro standartlari, dalolatnoma, xulosa, qaror.

KIRISH:

Respublikamizda bugungi kungacha olib borilgan islohotlar barcha sohalarni qamrab olib, sohalarning rivojlanishib borishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, har bir faoliyat turi bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, sohaning uslubiy ta‘minoti yaratib berildi. Jumladan, soliq auditorlik faoliyati bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda audit bo‘yicha yetarli uslubiy ta‘minot mavjudligini ko‘rsatmoqda. Mazkur soha bo‘yicha qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari sohaning uslubiy ta‘minoti yaratilganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida” gi O‘RQ-589-sonli va 2019 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-599-sonli qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagi PQ-4389-son “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2019-yil 30- dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida” gi qonuni ijrosini ta‘minlash choratadbirlari to‘g‘risida” qarorlari mamlakatimizda soliq budjet siyosatini takomillashtirishda asos bo‘ladigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi

Hotamov (2016) o‘zining ilmiy ishlarida QQS bilan bog‘liq quyidagi masalalarni tadqiq qilgan: mahsulotlar eksportini tasdiqlash, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha nol darajali stavkani qo‘llash, soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish; avtomatlashtirilgan tizimda

hujjatlar asosida soliq auditini o'tkazish metodikasini va bilvosita soliqlarni hisobga olish, hujjatlarda aks ettirish va jarayonlarning schotlardagi bog'lanishlari amaliy va uslubiy asoslangan holda takomillashtirish va boshqalar. Uning fikricha: hisobda buxgalteriya yozuvlarining mohiyatan to'g'ri berilishi hisob-kitob ishlaridagi chalkashliklarning oldini oladi, soliq va moliyaviy hisobotlarni tuzishda xatoliklarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash maqsadida ortiqcha to'langan bilvosita soliqlar summolari qaytarilishini 6410-"Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (turlari bo'yicha)" schotidan emas, taklif qilingan 4420-"Budjetga ortiqcha to'lovlar" schotidan qaytarish taklifi berilgan.

Soliq auditining muhimligini Barsulaya (2019) quyidagicha ifodalaydi: hozirgi vaqtda auditorlik xizmati turlari ichida soliq auditiga ko'proq ehtiyoj tug'ilmoqda. Ekspertlarning baholashicha Rossiya auditorlik kompaniyalari tushumining 30 foizi soliq auditiga to'g'ri kelmoqda.

Bu to'g'rida Arens va Lobbeklar (1995) quyidagilarni yozishgan: "Soliq to'lovchilarni federal soliq qonunlariga rioya qilishini, soliq deklaratsiyalarni tekshirish uchun hukumat auditorlar yollaydi... Soliq qonunchiligi juda murakkab bo'lib, soliqlarni tekshirish bo'yicha auditorlardan chuqur bilimlarga ega bo'lishlikni talab etiladi".

Iqtisodchi olimlardan Sheremet va Suyslar (2005) soliq auditiga «soliq auditi - bu soliqlarni to'g'ri va to'liq hisoblanishi va to'lanishi, soliq siyosatiga rioya qilinishini auditorlik tekshirishidir» deya ta'rif beradi.

Usatova (2008) o'zining ilmiy ishlarida soliq auditini quyidagicha e'tirof etgan: "Soliq auditi-bu buxgalteriya va soliq hisoblarining holatini, shuningdek tashkilotlarning soliqlar va yig'img'lar bo'yicha hisob kitoblarini mustaqil tekshirishdir".

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi auditorlik faoliyati bo'yicha komissiya tomonidan maqullangan (2000 yil 11 iyuldagi 1-sonli bayoni) «Soliq masalalari bo'yicha soliq auditi va boshqa xizmatlar. Soliq organlari bilan muloqat» nomli auditorlik faoliyatini metodikasida soliq auditi quyidagicha yozilgan: "Soliq auditi deganda iqtisodiy sub'ektning buxgalteriya va soliq hisobotlarini haqiqiyliги va qonunchilik tomonidan belgilangan normalarga mos kelishligi darajasini, iqtisodiy sub'ektlar tomonidan budjetga to'lanadigan soliqlar va boshqa to'lovlar va budjetdan tashqari fondlarga ajratmalarni hisobda aks ettirilishini auditorlik tashkilotlar tomonidan maxsus auditorlik topshiriqni bajarilishi tushuniladi".

Do'smurotov (2007) o'zining darslik, monografiya va boshqa ilmiy ishlanmalarida auditning umumiy jihatlarini aks ettirish bilan birga, soliqlarning har biri bo'yicha audit qilishni yoritib bergan.

Hotamovning (2016) fikricha "Soliq auditi – bu mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning barcha elementlari va

imtiyozlarni to'g'ri qo'llanilganligi soliq va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga mosligini tekshirishdir".

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda mamlakatimizda mavjud bo'lgan moliyaviy nazorat tizimi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Soliq auditining mohiyati yoritilgan. Soliq auditini xorij tajribasidan foydalangan holda tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar berilgan.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq auditini o'tkazish jarayonida Soliq kodeksiga, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 1 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qiladilar. Bundan tashqari, soliq auditini o'tkazishda tekshiruvchi, soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlari, ma'lumotlari, soliq va moliyaviy hisobot ma'lumotlari bilan mos kelishini o'rganishi, bunda sotilgan tovarlar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar realizatsiyasi hamda bajarilgan ishlar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishiga alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Tekshirilayotgan soliq to'lovchi mansabdor shaxslarining yaqin qarindoshlari bo'lgan davlat soliq xizmati organlari xodimlarining mazkur soliq to'lovchilarda soliq tekshiruvini o'tkazishi mumkin emas. Auditini boshlashdan oldin manfaatlar to'qnashuvi (soliq xodimi va soliq to'lovchi bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lishi yoki bir-biri bilan qarindoshlik aloqasi mavjudligi) vujudga kelganda yoki kelishi mumkin bo'lgan hollarda soliq auditini o'tkazishga jalb qilingan xodim bu haqda o'zining bevosita rahbariga ma'lum qilishi va bunday holat vujudga kelganda tegishli rahbar tomonidan soliq auditini o'tkazishga boshqa xodimni jalb qilinishi lozim bo'ladi. Umuman olganda tekshiruvchi, soliq to'lovchilarning amalga oshiradigan faoliyat turiga va o'ziga xos xususitiga qarab individual tarzda yondashishi lozim bo'ladi.

Soliq auditi boshqarmasi xodimlari tomonidan mazkur nomzodlar bo'yicha 10 kun muddatda o'rganish o'tkaziladi. Bunda soliq xavflari mavjudligi yoki mavjud emasligiga e'tibor qaratiladi. O'rganish natijasi bo'yicha soliq auditi o'tkazilishi lozim bo'lgan nomzodlarni sohalar kesimida jamlanadi va tegishliligi bo'yicha hududiy soliq organlariga yuborilib, agar yuqori xavf darajasi tasdiqlanmagan soliq to'lovchilar ro'yxati asoslantirilgan ma'lumotlar bilan birga Soliq auditi boshqarmasi xodimining xulosasi asosida Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamentiga qaytarib yuboriladi.

Soliq auditining asosiy bosqichlariga quyidagilar kiradi:

soliq auditiga dastlabki tayyorgarlik ko'rish;

soliq auditi jarayoni;

soliq auditi dalolatnomasini rasmiylashtirish tartibi.

Soliq auditi o'tkazilishi lozim bo'lgan nomzodlar bo'yicha tekshiruvchi dastlabki o'rganish o'tkazadi va soliq auditini o'tkazish rejasini tuzadi. Bunda e'tiborni quyidagilarga qaratishi lozim:

soliq va moliyaviy hisobotlar, shuningdek soliq to'lovchilar tomonidan soliq organiga taqdim qilingan boshqa ma'lumotlar;

offshor xududlarda hisob raqamlari mavjudligi;

olib kirilayotgan tovarlar qiymati to'g'risidagi bojxona ma'lumotlari;

kameral va sayyor soliq tekshiruvlari natijalari;

soliq to'lovchining ta'sischilari tomonidan tashkil etilgan boshqa tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlari;

ko'chmas mulkka egalik qilish va sho'ba (filiallar)ning mavjudligi;

xorijiy davlatlarning vakolatli organlari tomonidan o'zaro axborot almashish to'g'risidagi bitimlar doirasida taqdim etiladigan axborot;

vab-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlar;

sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim qilingan soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risida ma'lumotlar (ajrimlar, taqdimnomalar va boshqa hujjatlar);

jismoniy va yuridik shaxslarning sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlari;

soliq to'lovchi tomonidan statistika organlariga taqdim etiladigan hisobotlardagi ko'rsatkichlar va soliq organlariga taqdim etiladigan hisobotlar o'rtasidagi aniqlangan tafovutlar to'g'risida ma'lumot;

soliq organlarida mavjud dasturiy mahsulotdan foydalangan holda davlat organlari, muassasalar va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar. Tekshiruvchi soliq organlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda, nazorati soliq organlariga yuklatilgan boshqa masalalar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi.

Soliq to'lovchilar bo'yicha auditdan oldingi dastlabki o'rganishni o'tkazish muddati, nomzodlar ro'yxati hududiy soliq auditini o'tkazish bo'linmalariga kelib tushganidan boshlab soliq xavfi darajasidan kelib chiqib, oldindan xabardor qilish yo'li bilan o'tkaziladigan soliq auditi bo'yicha o'ttiz ish kundan kechiktirmasdan, xabardor qilmasdan soliq auditi o'tkaziladigan soliq to'lovchilar bo'yicha o'n ish kunidan kechiktirmasdan amalga oshirilishi lozim. Soliq auditi doirasida hujjatlar almashish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Xabarnoma elektron tarzda soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti mavjud bo'lmasa, hujjatlar buyurtma xat qilib pochta orqali yuboriladi.

Mazkur xabarnomada audit o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati ko'rsatilib, soliq organi rahbarining (rahbar o'rinbosarining) buyrug'i, soliq to'lovchiga xabarnoma berilgan kundan o'ttiz kalendar kunidan oshmagan muddatda chiqariladi.

Tekshiruvchi, soliq auditi o'tkazilishi lozim bo'lgan soliq to'lovchilar bo'yicha auditdan oldingi o'tkazilgan o'rganish natijalari bo'yicha audit o'tkazish dasturini tuzadi.

Soliq auditi o'tkazish uchun tuziladigan dastur o'z ichiga quyidagilarni olishi mumkin:

soliq to'lovchining tashkiliy-huquqiy shakli;

soliq to'lovchining asosiy faoliyat turlari;

soliq to'lovchi daromad manbalari va ularning buxgalteriya hisob registrlarida aks ettirilishi;

xarajatlar tarkibi, iqtisodiy jihatdan oqlanganligi, tannarxga hisobdan chiqarilishi, xarajatlarni hisobdan chiqarishning me'yorlari, kalkulyatsiyalar va normativlarning tasdiqlanganligi;

soliq auditini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarning dastlabki ro'yxati (xabarnomada ko'rsatish uchun);

soliqlarni hisoblanishida foydalanish uchun soliq to'lovchi tomonidan to'ldirilishi lozim bo'lgan jadvallar.

Soliq auditi ob'ekti hududi va binosini ko'zdan kechirish quydagicha amalga oshiriladi. Tekshiruvchi tekshirilayotgan shaxsning hududiga yoki binosiga kirishi va ko'zdan kechirishi Soliq kodeksining 144 va 145-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida nizomning 175-230 bandlarida belgilangan tartibda tovar moddiy boyliklarni inventarizatsiyadan o'tkazish amalga oshiriladi. Mulkning (omborlar, muzlatkichlar, yong'in signalizatsiyasi va boshqalar) qo'riqlanishi va foydali fizik xususiyatlari saqlanishini ta'minlovchi vositalar va noqonuniy ishlatishdan fizik himoyalovchi vositalarni (to'siqlar, eshik va darvozalar, qulflar, signalizatsiya, videokuzatuv va boshqalarni) texnik holatiga e'tibor beriladi. Tekshiruv davomida foto va video texnikalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Vizual kuzatuv rasmdagi texnik yaroqsiz holatdagi mulk buxgalteriyada faol ishlatilgan deb aks ettirilishi mumkin. Soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar boshqa hududda joylashgan taqdirda, ushbu ob'ektlarni ko'zdan kechirish, soliq to'lovchining mol-mulkini inventarizatsiya qilish va savdo qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish tekshiruvchilarning murojaati asosida ob'ekt joylashgan joydagi soliq organi rahbarining (o'rinbosarining) buyrug'iga binoan ob'ekt joylashgan joydagi soliq

organlari mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Hudud va binolar ko'zdan kechirish natijasi bo'yicha bayonnoma tuziladi.

Soliq auditi o'tkazishda soliq to'lovchi hisobotlarining aniqliligini tekshirish lozim bo'ladi. Bunda bir necha xildagi hisobotlarni olib ularning arifmetikasi tekshiriladi. Masalan, sotuv registrlarining yig'indisi, to'lovlarning yig'indisi, xarajatlar yig'indisi va hokazo.

Tekshiruvchi soliq to'lovchi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar bilan ishlashni boshlaganda uning umumxo'jalik faoliyati qanday yakunlanganligiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Soliq to'lovchining umumxo'jalik faoliyati foyda bilan yakunlangan bo'lib, ta'sischi'larga dividendlar to'lab berilgan bo'lsa, u holda soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatini ijobiy hisoblash mumkin bo'ladi. Aksincha soliq to'lovchining umumxo'jalik faoliyati zarar bilan chiqqan bo'lsa, u holda soliq to'lovchining daromad va xarajatlar qismi tekshirilib tahlil qilinadi. Aksiz va qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda sotilgan mahsulot tannarxining tovarlar (xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumga nisbati, sotilgan mahsulotning rentabelligini beradi.

Sotilgan tovarlarning (xizmatlar) rentabelligi past bo'lib, xarajatlarini qoplamasdan soliq to'lovchining asosiy faoliyati zarar bilan chiqqan bo'lsa, u holda, sotilgan tovarlarning (xizmatlar) bahosi aynan o'xshash (bir turdagi) tovarlar (xizmatlar) bahosi bilan taqqoslanadi.

Soliq to'lovchining daromad qismini tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

sotilgan tovarlarning (xizmatlarni) ustamasi uning tannarxiga nisbatan qancha (foiz) qo'yilganligi;

sotilgan tovarlarning (xizmatlarni) tannarxini shakllanishi;

sotilgan tovarlarning (xizmatlarni) yalpi foydasi (zarari).

Birlamchi kirim va chiqim hujjatlarning buxgalteriya hisobi registrlarida aks ettirilishini tekshirish qanday amalga oshiriladi?

Tekshiruvchi ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlari talablariga rioya qilinganligini tekshirishi lozim bo'ladi. Bunda, soliq to'lovchining buxgalteriya hisobi registrlarini haqqoniyliigi va soliq bazasi qanday aniqlanganligi tekshiriladi. Buxgalteriya hisobi registrlari ikki yoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladigan jurnallar, qaydnomalar, daftarlar, tasdiqlangan blankalar (shakllar)dir. Registrlar texnika vositalaridan foydalanishda olingan mashinogramma ko'rinishidagi yozuvlar yo'li bilan, shuningdek elektron axborot jismlari – magnit tasmlari, disklar, disketlar va boshqa mashinalarda bajarilishi mumkin. Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq barcha operatsiyalar (kirim-chiqimi) buxgalteriya hisobi registrlarida aks etishi lozim. Buxgalteriya hisobi registrlari birlamchi kirim va chiqim

hujjatlari asosida shakllanadi. Soliq auditi soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlarini va boshqa hujjatlarini o'rganish hamda soliq hisobotlari bilan taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi. Mahsulot tannarxini, davr xarajatlarining choraklar (yillar) kesimida daromadi o'sish yoki kamayishiga nisbatan o'sish yoki kamayish omillarini tahlil qiladi. Shuningdek, soliq to'lovchining zarar bilan chiqish omillari o'rganiladi va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlanishi lozim bo'ladi.

Soliq auditi dalolatnomasini rasmiylashtirish tartibi:

Soliq auditi dalolatnomasi tekshiruvchi tomonidan kamida uch nusxada tuziladi.

Soliq auditi dalolatnomasida quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim:

soliq auditi dalolatnomasini tuzish sanasi - ushbu tekshiruvni o'tkazgan shaxslar tomonidan dalolatnoma imzolangan sana;

tekshirilayotgan shaxsning to'liq va qisqartirilgan nomi yoki familiyasi, ismi, otasining ismi. Yuridik shaxs uning alohida bo'linmasi joylashgan yerda tekshirilgan taqdirda yuridik shaxsning nomidan tashqari tekshirilayotgan alohida bo'linmaning to'liq va qisqartirilgan nomi hamda uning joylashgan yeri ko'rsatiladi;

o'zlari vakili bo'lgan soliq organining nomi ko'rsatilgan holda soliq auditini o'tkazgan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning lavozimlari;

soliq organi rahbarining (rahbari o'rinbosarining) soliq auditi o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i sanasi va raqami;

soliq auditi davomida tekshirilayotgan shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar ro'yxati;

soliq auditi o'tkazilgan davr;

soliq auditi qaysi soliqqa nisbatan o'tkazilgan bo'lsa, o'sha soliqning nomi;

soliq auditi boshlangan va tugagan sana;

yuridik shaxs joylashgan yerning yoki jismoniy shaxs yashash joyining manzili;

soliq auditini amalga oshirish chog'ida o'tkazilgan soliq nazorati tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining tegishli normasiga havola qilgan holda soliqqa oid huquqbuzarlikning batafsil tavsifi soliq auditi natijalari bo'yicha xulosalar va takliflar.

Soliq auditi dalolatnomasini imzolash, imzolashdan bosh tortganda ko'riladigan choralar, dalolatnomani soliq to'lovchiga taqdim etish, dalolatnomani soliq organida ro'yxatdan o'tkazish, soliq auditi dalolatnomasi asosida berilgan e'tirozlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish tartibi Soliq kodeksi asosida amalga oshiriladi.

5. Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilarga asoslangan holda quyidagi takliflarni qilish mumkin:

Import operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikka yo'l qo'ygan xo'jalik sub'ektlari tomonidan ushbu qarzdorlik to'liq bartaraf etilmagunga qadar

xorijiy hamkorlarga navbatdagi to'lovni amalga oshirishni vaqtincha cheklash bo'yicha bank qonunchiligiga tegishli o'zgartirish kiritish taklif etiladi.

Bir kunlik firmalar"da 10 kunda yirik pul aylanmalarining chegara miqdori 1,0 mlrd.so'mdan oshgan sub'ektlarning hisob raqamidagi pul aylanmalari to'g'risida to'liq ma'lumotlarni kunlik onlayn tarzda olish taklif etiladi.

Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Daniel Ho, Peter Lau (2019) Tax audit in Hong Kong// The International Tax Journal.21.12.2019. Samuel Chan, Gerald Chau, Patrick Leung (2017) Tax audit and investigation in China and Hong Kong// The International Tax Journal, February-January.
2. Arens A., Lobbek Dj. (1995) Audit. – M.: Финансы i statistika. s.12-14. (Ahrens A., Lobbeck J. (1995) Audit. - M.: Finance and statistics. p.12-14.)
3. Barsulaya T.D. (2019) Nalogovyy audit. Uchebnik: uchebnoe posobie / Barsulaya T.D. — Moskv : Rusayns. — 582 s. — ISBN 978-5-4365-3384-1. — URL: <https://book.ru/book/932100> (data obrasheniya: 14.12.2019). (Barsulaya T.D. (2019) Tax audit. Textbook: study guide / Barsulaya T.D. - Moscow: Russcience. - 582 p. — ISBN 978- 5-4365-3384-1. — URL: <https://book.ru/book/932100> (reference date: 14.12.2019))
4. Do'smurotov R.D. (2007) Auditorlik faoliyati: Nazariya, uslubiyot va amaliyot. Monografiya. - T.: «Moliya». – 276 b. (Dusmurotov R.D. (2007) Auditing activities: Theory, methodology and practice. Monograph. - T.: «Moliya». – 276 p.)
5. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi. O'RQ599, 2019-yil 30-dekabr. (Tax Code (2019) New Tax Code of the Republic of Uzbekistan. ZRU-599, December 30, 2019.)
6. Mironova O.A., Xanafeev A.F. (2014) Razvitie nalogovogo audita: problemy i perspekti-vyi / O. A. Mironova, A. F. Xanafeev // Auditorskije vedomosti. №5. - S. 27 – 37. (Mironova O.A., Hanafeev A.F. (2014) Development of tax audit: problems and prospects / O. A. Mironova, A. F. Khanafeev // Audit statements. №5. - p. 27 – 37.)
7. Orlov D.V. (2019) Razvitie metodologii i organizatsii nalogovogo audita v kommercheskix bankax: avtoref. dis.kand.ekon.nauk: 08.00.12 [Elektronnyy resurs] /
8. Orlov Dmitriy Valerevich. Rejim dostupa: <http://www.psu.ru>.18.12.2019. (Orlov D.V.
9. (2019) Development of a methodology and organization of tax audit in commercial banks: author. Candidate of Economic Sciences: 08.00.12 [Electronic resource] / Orlov Dmitry Valerievich: <http://www.psu.ru>.18.12.2019.)
10. Usatova L.V. (2008) Organizatsiya protsessa nalogovogo audita rasxodov. Jurnal ekonomicheskij analiz: teoriya i praktika, 24 (129), 26-31str. (Usatova L.V. (2008) Organization of the process of tax audit of expenses. Journal of Economic Analysis: Theory and Practice, 24 (129), 26-31 pp.)
11. Hotamov K.R." (2016) Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish" dissertatsiya i.f.d., T.: 136 b. (Khotamov K.R. (2016)